



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xodjamqulov Umid Negmatovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> TVChDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi [xojamqulov77@mail.ru](mailto:xojamqulov77@mail.ru)

NAVOIY SHAXSIYATI: ETYUDLAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada buyuk shoir, soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiy shaxsiyatidagi ibratli jihatlar qayd etilgan. Unda shoir ijodining oʻrganilishi, bugungi avlod uchun ibrat boʻladigan insoniy fazilatlarini, uning butun dunyoda salohiyatiga yarasha shuhratini taʼminlash boʻyicha adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalar tadqiq etilgan.

**Kalit soʻzlar:** navoiyshunoslik tadriji, “Xamsa”, Foni.

## ЛИЧНОСТИ НАВОИ: ЭТЮДЫ

**Аннотация:** в данной статье отмечаются образцовые аспекты личности великого поэта, султана слова Алишера Навои. В ней изучаются творчество поэта, человеческие качества, которые станут уроком для сегодняшнего поколения, актуальные задачи нашего литературоведения по обеспечению его славы на весь потенциал мира.

**Ключевые слова:** эволюция изучения Навои, “Хамса”, Фани.

## NAVOI PERSONALITIES: SKETCHES

**Abstract:** this article highlights the human qualities of the great poet Alisher Navoi. It examines the current challenges facing literary studies in the study of the poet's work, his human qualities, which will become an example for the current generation, ensuring his potential fame around the world.

**Keywords:** Study of Navoi's creativity, "Hamsa", Fani

**KIRISH (Introduction)**

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning hayoti, uning shaxs sifatidagi siymosi, inson sifatidagi siyrati, benazir ijodi oradagi sal kam olti yuz yillik vaqt bilan ham zamondoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrda qabul qilingan "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-son qarori shoir asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish bilan bog'liq ezgu maqsadlarga qaratilgan. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egallab kelmoqda. Biz ushbu maqolamizda buyuk allomaning zamondoshlarimiz uchun ibrat bo'ladigan fazilatlarini keltirishni maqsad qilganmiz. Ayni shu nuqtai nazardan maqolada muayyan tizimlilik bo'lmasligi mumkin, ammo keltirilgan barcha ma'lumotlar ALISHER NAVOIY degan BUYUK SHAXS siymosi atrofida birlashadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI****(Literature review; Research Methodology)**

Alisher Navoiy ijodining o'rganilish tarixi u yashagan davrga borib taqaladi. Shoir hayotining so'nggi yillarida uning asarlari tiliga lug'at ishlanishi navoiyshunoslik bo'yicha bajarilgan ilk tadqiqotlardan hisoblanadi. Umuman, navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Navoiyning o'z asarlaridagi ma'lumotlar.
2. Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar.
3. XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlar.
4. Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi.
5. Navoiy ijodining G'arbda o'rganilishi.<sup>1</sup>

Demak, Alisher Navoiy ijodi besh yuz yildan ortiq davr mobaynida o'rganilar ekan, bu, avvalo, mazkur ijodning ko'lami va sifati haqida muayyan xulosalar chiqarishimizga imkon beradi. Alisher Navoiy ijodi adabiyotshunoslikdan tashqari tarix, tilshunoslik, lug'atshunoslik, she'r san'ati, islomshunoslik va tasavvufshunoslik kabi fan sohalari uchun ham boy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotshunosligimizda Alisher Navoiy ijodi P.Shamsiev, H.Sulaymonov, V.Zohidov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Rustamov, B.Valixo'jayev, N.Komilov, I.Haqqulov, Sh.Sirojiddinov, M.Muhiddinov, D.Salohiy, S.Rafiddinov, K.Mullaxo'jayeva, M.Hamidov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijda esa Y.E.Bertels (Rossiya), Artoleme d'Erbelo, Silvestre de Sasi (Fransiya), I.N.Beryozin, V.V.Velyaminov, M.Nikitskiy (Rossiya), M.Belen, E.Bloshe, L.Buva (Fransiya), E.Braun (Angliya), V.Bartold (Rossiya), A.Kurella (Germaniya), M.Sabtelni, V.Feldman, D.Genchturk, D.Devin, K.Adaxl, G.Dik (Angliya) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

---

<sup>1</sup> Yusupova D. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi.e-adabiyot.uz <http://e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoiy/1045-maqola.html>

Ushbu tadqiqotlarning barchasi dunyo hamjamiyatida globallashtirish jarayonlari kuzatilayotgan hozirgi davrda Alisher Navoiy ijodini har tomonlama tadqiq qilishga qiziqish va ehtiyoj ortib borayotganligini ko'rsatadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and results)

Alisher Navoiy shaxsiyatida ibratli jihatlar ko'p, biz shulardan ayrimlarini turkumlab keltirishga va ularni asoslashga harakat qilamiz.

**1. Navoiyning shuhrati.** Shuni ta'kidlab aytish kerakki, dunyo dunyo bo'lib Alisher Navoiydek "ko'p va xo'p" ijod qilgan shoirni ko'rmagan. Salmoq nuqtai nazaridan ham, sifat nuqtai nazaridan ham Navoiyning oldiga tushadigan shoir dunyo adabiyotida mavjud emas. Birgina "Xamsa" dostoni 54 ming (27 ming bayt) misradan iborat. Navoiy nafaqat shoir, balki tarixchi, lug'atshunos, tilshunos, adabiyotshunos, islomshunos va tasavvufshunos olim hamdir. Navoiy yaratgan barcha asarlarni bir kishi ijod qilganiga aql ishonmaydi, lekin bu haqiqat.

**2. Alisher Navoiy ismining etimologiyasi.** Ushbu jihat ham bizga buyuk siymoning ibratli jihatlari haqida muayyan xulosalar chiqarishimizga imkon beradi. Ma'lumki, shoirning to'liq ismi "Nizomiddin Mir Alisher Navoiy-Foniy"dir. Bu ismdagi har bir so'z o'zining shu shaxs faoliyati, uning siyrati va tiynati bilan bog'liq muayyan asoslarga ega. Dastlab "Nizomiddin" so'zini olsak. Bu shoirga berilgan nisbadir. Bu so'z dinning nizomi, qoidalari, arkonlari, asosi degan ma'nolarni bildiradi. Shoir islomshunoslikdan chuqur xabardor bo'lgani uchun ham unga shunday nisba berilgan. Demak, bu nisbada shoirning islomiy tafakkuri, ma'rifati o'z ifodasini topgan. Shoirning zamondoshi muarrix Xondamir "Makorim-ul-ahloq" kitobida quyidagi voqeani bayon etadi: Alisher Navoiy bandalik vazifasini ado etgach, jamoat bilan suhbatlashar, hol-ahvol so'rar, bemor va ehtiyojmandlarning ko'nglini ko'tarar edi. Nimagadir bir kuni tarki odat qilib, qayergadir shoshilib borib keldilar. Bu holga odatlanmagan jamoa qiziqib so'rganlarida hazrat Navoiy shunday izoh berdilar: "Ikki yelkamga salom berganda ko'rdimki ustimda bir chumoli turibdi. Bu chumoli tahorat olganim joydan chiqqanini bildim va bir jonzotni oshiyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o'ylab uni o'z joyiga qo'yib keldim". Ushbu tarix ham shoirning diniy e'tiqodi qay darajada mukammal

bo‘lganligidan darak beradi. “Mir” so‘zi mansab egalariga nisbatan ularning ismlariga qo‘shib aytiladigan nisba. Ma’nosi “amir” degani. Darhaqiqat, Navoiy o‘z davrining katta amiri edi. Katta lavozimlarda ishlagan. O‘sha davrda shoh Husayn Boyqarodan keyingi 2-raqamli nufuzli shaxs bo‘lgan. Boyqaro unga “Amiri Kabir”, ya’ni “Ulug‘ amir” unvonini bergan, bilasizlar. Demak shoir ismidagi “Mir” so‘zi o‘sha mansab egasi ekanligiga ishora qiladi, shuni anglatadi. “Alisher” uning asl ismi. Alisher sherdek jasur, dovyurak, qudratli, islom dinidagi 4-xalifa Alidek kuch-qudrat, iymon va zakovat egasi degan ma’nomlarni bildiradi. Darhaqiqat, shoir ismida mujassam bo‘lgan o‘sha sifatlarga to‘la ma’noda munosib edi. “Navoiy” – shoirning taxallusi. Bu navo so‘zidan olingan. Shoir o‘z she’rlarini yoqimli navo kabi har bir o‘quvchining qalbiga kirib borishini, ularning qalbidan sehrli kuy kabi joy olishini istab o‘ziga shunday taxallusni olgan. Navoiy ismida bu ma’no ham hayotda o‘z isbotini topdi. Uning she’rlari mana sal kam 600 yil bo‘ptiki, hamon o‘quvchilarning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelmoqda. “Foniy” taxallusi shoirning fors-tojik tilida yozgan asarlarida qo‘llanilgan taxallus. “Foniy” so‘zi o‘tkinchi, turg‘un emas degan ma’nomlarni anglatadi. Boqiy so‘zining antonomi. Islomiy ta’limotga ko‘ra “fano”ning “baqo”ga nisbatan qadri past. Buning zamirida shoir turkiy tilning, shu tildagi ijod namunalari qadrini baland tutishga bo‘lgan ishorani ko‘rish mumkin.

**3. Saxovatpeshalik.** Alisher Navoiy katta amir sifatida ulkan sarmoyaga egalik qilgan. Darhaqiqat, Navoiy dehqonchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish natijasida juda katta daromad ko‘rgan. Tarixchilarning yozishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruxiy dinor miqdorida edi. Ulug‘ Amir bu daromadning ko‘p qismini xayrli ishlarga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko‘prik, bir qancha to‘g‘on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni eslaydi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o‘nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo‘lgan. Hatto, Sulton Husayn Boyqaro o‘z qo‘shinining ta’minotiga qiynalib qolganda Navoiydan qarz olgani haqida ham ma’lumotlar bor. Umuman, Alisher Navoiyning badavlat va saxovatpesha inson sifatidagi fazilatlarini, o‘z mol-

mulkini qanday tasarruf etishi bilan bog‘liq xayrli ishlari ayrim bizga zamondosh bo‘lgan kishilar uchun ibrat bo‘lishi kerak, bizning nazarimizda.

**4. Alisher Navoiyning onasi kim bo‘lgan?** Alisher Navoiyning onasi haqida hech qanday ma’lumot bizgacha yetib kelmagan. Bu ham juda qiziqarli holat. Shunday buyuk insonni dunyoga keltirgan ayol haqida fanda umuman ma’lumot yo‘qligi kishini ajablantiradi. Harholda bu tasodif emas. Buning qandaydir sabablari bo‘lishi tayin. Ammo ilm ahli hali-hanuz bu juboqning tagiga yeta olgan emas. Umuman, Navoiydek shoirni tarbiyalagan ayolning qanday sifatlarga ega bo‘lgani, farzand tarbiyasida qanday tamoyillarga amal qilgani, albatta, qiziq va buning onalar uchun ibratli tomonlari ham bor. Bu masalada adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov suhbatlarning birida muayyan asosga ega bo‘lgan ma’lumotni taqdim etgan edi: mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiyni o‘rganuvchi guruh tarkibida domla Afg‘onistonga safar qiladi. Ilmiy jamoa Hirotda borib, Alisher Navoiyning maqbarasini ziyorat qiladi, shu yerdagi tub aholi bilan muloqotga kirishib, shoir haqida ma’lumotlar to‘playdi. Tasodifan, olim Navoiy maqbarasiga yaqin yerda istiqomat qiluvchi bir o‘spirin yigit bilan suhbatlashib qoladi. O‘spirin domlaning savollariga juda ishtiyoq bilan javob beradi. Domlaning o‘spiriga onasi haqida bergan savollariga yigit lom-mim demaydi. Domla buning boisini katta kishilardan so‘raganda, o‘sha atrofda o‘zining yaqin qarindoshi bo‘lgan ayollar haqida begonalarga umuman ma’lumot bermaslik udumi borligini aytishadi. Shundan keyin domla “Balki Alisher Navoiy yashagan davrda ham Hirotda shunday udum bo‘lgandir va shuning boisidan Navoiy hech bir yerda o‘z onasi haqida ma’lumot qoldirmagandir” degan xulosaga keladi.

Umuman, Navoiyning onasi haqida ma’lumot yo‘qligini asoslaydigan bundan boshqa asosli ma’lumot hozircha adabiyotshunoslarga ma’lum emas.

**5. Navoiyning “shuhratsiz”ligi.** Yuqorida Navoiyning olamshumul shuhratini ta’kidlagan edik. Aslida dunyo hamjamiyatida Alisher Navoiy o‘z iqtidori va salohiyati, ijodiga yarasha shuhrat topa olgan emas. Asrimiz boshlarida Rossiyada “Eng buyuk yuztalik” rukni ostida turkum kitoblar nashr qilindi. Har bir kitob “Eng buyuk yuzta sakarda”, “Eng buyuk yuzta shoir”, “Eng buyuk yuzta olim”



deb nomlanadi. Eng qizig‘i, Navoiydek dunyoning eng buyuk shoiri “Eng buyuk yuzta shoir” kitobidan joy olmagan. Zahiriddin Muhammad Bobur bor ro‘yxatda, Navoiy yo‘q. Vaholanki, Navoiy son va sifat buyicha shoirlar orasida eng peshqadami hisoblanadi. “Nima uchun bu ro‘yxatda Navoiy yo‘q?” degan tabiiy savol tug‘iladi. Boburning ro‘yxatda mavjudligi, shoh va shoir sifatida u Yevropa ilmiy jamoatchiligiga yaxshi ma‘lum. Hindiston Angliya tomonidan mustamlaka qilingach, Bobur shaxsi va uning ijodi ingliz mustamlakachilari orqali Yevropa va jahon ilmiy jamoatchiligiga ma‘lum bo‘ldi. Navoiyda esa mana shu targ‘ibot bo‘lmagan. Targ‘ibotning, tashviqotning va tarjimaning yo‘qligi Navoiyning dunyo afkor ommasi oldidagi nufuziga soya tashlab turibdi. To‘g‘ri, keyingi yillarda Ozarboyjonda, Yaponiyada va yana boshqa mamlakatlarda Navoiyning haykali o‘rnatilib, unga hurmat ko‘rsatilyapti. Lekin bu shoirning olamshumul shuhratini ta‘minlab bera olmaydi. Mana maslan, O‘zbekistonda “Konfutsiy bog‘i” ochildi. Shu bilan O‘zbekiston aholisi orasida Konfutsiyning shuhrati ta‘minlandimi? Yo‘q, buni bilsa, 5-10 foiz aholi biladi. Shuning un qaysidir davlatlarda Navoiyga ehtirom sifatida uning haykallarini o‘rnatish uning shuhratini ta‘minlab bera olmaydi. Navoiyning shuhratini uning ijodi ta‘minlaydi, uning asarlari, she‘rlari ta‘minlaydi. Qachonki Navoiyning go‘zal she‘riyati boshqa tillarga ham tarjima qilinib, ko‘p sonli kitobxonlar qo‘liga yetib borsa, o‘shanda Navoiyning shuhratini butun dunyo e‘tirof etadi. Bu borada esa shu soha mutasaddilarining tizimli va maqsadli ish olib borishlari talab etiladi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR (Conclusion/Recommendations)**

Alisher Navoiy tug‘ilgan qutlug‘ 9 fevral sanasini har yili adabiyot va ma‘rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an‘anaga aylangan. Ulug‘ so‘z san‘atkorining asarlari muntazam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Jonajon Vatanimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo‘yib, yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va

madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, bizning butun dunyo adabiyoti bilan bo'ylasha oladigan juda katta va kuchli adabiyotimiz bor. Klassik adabiyotdan tashqari hozirgi davr adabiyotimiz ham jahon adabiyoti bilan bimalol bo'ylasha oladi. Faqat uning targ'iboti va tashviqoti yetarli darajada emas. O'zbek adabiyotining jahon afkor ommasi tomonidan tan olinmayotganing asosiy sababi shu bilan izohlanadi. Hozirgi sharoitda, kerak bo'lsa, o'sha boy adabiyotimizni, nodir asarlarimizni o'zimiz tarjima qilib chet el kitobxonlariga yetkazib berishimiz kerak. Shundagina o'zbek adabiyoti dunyoga yuz tutadi, shundagina o'zbek adabiyotini dunyo e'tirof etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (References):

1. Samarqandiy Davlatshoh. Shoirlar bo'stoni ("Tazkiratu-sh-shuaro"dan) – T.: Adabiyot va san'at, 1967.
2. Xondamir G'iyosiddin binni Humomiddin. Makorimul-ahloq (Yaxshi hulqlar) / Forschadan M.Faxriddinov, P.Shamsiev tarj.; - T.:Badiiy adabnashr., 1967.
3. Bobur Zahiriddin. Boburnoma / Hozirgi o'zbek tiliga Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jayeva tabdili. -T. : O`qituvchi NMIU, 2008.
4. Ayoziy Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy.– T.: O'zbekiston, 2011.
5. Boyqaro Husayn. Risola: Devon. – T.: Sharq,1995.
6. Vosifiy Zayniddin. Badoe'ul vaqoe' – Nodir voqealar / Forsiydan N.Norqulov tarjimasini. – T.: Adabiyot va san'at,1979.
7. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – T.: Adabiyot va san'at,1985.
8. Sirojiddinov Shuhrat. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy- tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.
9. Alisher Navoiy ijodiy va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – T.: O'zbekiston, 2011.
- 10.Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.





11. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – T.: Fan, 1996.
12. Alisher Navoiy: 1441-1501 yil. Adabiyotlar ko'rsatkichi / Tuz. Z. Berdieva, A. Turopova. – T., 1991.
13. Yusupova D. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi. e-adabiyot.uz <http://e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoiy/1045-maqola.html>